

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor**

**R. To‘rayev**

**30 August 2024 yil**

**Ro‘yxatga olindi №**

**FD 60230100**

**2024 yil “**

**30 August**

**AMALIY GRAMMATIKA VA FONETIKA  
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi	200000 -	San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230000 -	Tillar
Ta‘lim yo‘nalishi:	60230100 -	Filologiya va gillarni o‘qitish (tillar bo‘yicha)

**TERMIZ – 2024**

Fan/ Modul kodi AGF11-210		O'quv yifi 2024-2025	Semestr 1/2	ECTS - Kreditlar 5/5	
Fan/ Modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Amaliy grammatika va fonetika	120	180	300	

### I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarning o'rganilayotgan chet tili tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishga, nutq jarayonida tovushlarning o'zgarishi, so'zlarda bo'g'in yasalishi va bo'g'in ajratilishi, so'z va gap urg'usi, intonatsiyani to'g'ri qo'llashga, talaffuz malaka va ko'nikmalarini egallashni ta'minlash; talabalarga ingliz tili grammatikasining asosiy qonuniyatlarini o'rgatish orqali ularning og'zaki va yozma nutqlarini grammatik xatolarsiz erkin muloqot darajasida rivojlantirish.

Fanning vazifasi – talabalarning ingliz tili grammatikasi bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, gaplarni grammatik jihatdan tahlil qilish va murakkab grammatik konstruksiyalarni to'g'ri qo'llay olishlarini ta'minlash hamda fan doirasida o'zlashtirgan grammatik bilimlardan inglizcha muloqot jarayonida samarali foydalanishga o'rgatish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

#### Amaliy fonetika moduli bo'yicha:

- nutq organlari, ularning nutq tovushlari hosil qilishdagi roli haqida tushunchaga ega bo'lishi;
- harf va tovush munosabati, unli va undosh tovushlar tasnifi va bir-biriga munosabatini o'zlashtirishi;
- har bir tovushning to'g'ri talaffuzini ta'minlash uchun turli fonetik mashqlar bajarish, chet tilidagi matnlarni audio-video vositalar yordamida tinglab tushunish va talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishi;
- chet tilida bo'g'in yasalishi va bo'g'in ajratilishi masalalarini o'rganishi, so'z urg'usi va intonatsiyaning so'zda va gapdagi o'rni haqida tushunishi va ulardan foydalana olishi;
- chet tilida tovushlarning bir-biriga o'zaro ta'siri natijasida turli kombinator-pozitsion o'zgarishlar sodir bo'lishi (assimilyatsiya, akkomodatsiya, eliziya va h. k.) bilan bog'liq mashqlar bajarish orqali talaffuz ko'nikmalarini hosil qilishi;

- talabalar til kompetensiyalari orqali talaffuz malakalari va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

#### Amaliy grammatika moduli bo'yicha:

- talabalarning ingliz tili grammatikasi bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish;
- gaplarni grammatik jihatdan tahlil qilish va murakkab grammatik konstruksiyalarni to'g'ri qo'llay olishlarini ta'minlash;
- fan doirasida o'zlashtirgan grammatik bilimlardan inglizcha muloqot jarayonida samarali foydalanishga o'rgatish.

### II. Asosiy nazariy qism ( ma'ruza mashg'ulotlari)

#### II.I. Modul I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-mavzu. Kommunikativ-normativ fonetika faniga kirish. Nutq tovushlarining hosil bo'lishi va nutq organlari

“Kommunikativ-normativ fonetika” faniga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari hamda boshqa fanlar bilan aloqasi.

Nutq tovushlarining xosil bo'lishi va ularning hosil bo'lishida ishtirok etadigan nutq organlari.

#### 2-mavzu. Undosh tovushlarning xususiyati va ularni klassifikatsiya qilish tamoyillari

Ingliz tilidagi undosh tovushlarning xususiyatlari; ularning klassifikatsiyasi xaqida ma'lumot. Undosh harflarning o'qilish qoidalari.

#### 3-mavzu. Unli tovushlarning xususiyati va ularni klassifikatsiya qilish tamoyillari

Ingliz tilidagi unli tovushlarning xususiyatlari; monoftonglar klassifikatsiyasi.

#### 4-mavzu. Urg'u. Urg'u turlari. Bo'g'in to'g'risida tushuncha va bo'g'in turlari. Bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli so'zlar

Ingliz tilida bir va ko'p bo'g'inli so'zlarda urg'uning holati va urg'uni qo'shma ot va yasama so'zlarda ishlatilishi.

#### 5-mavzu. So'zlarning kuchli va kuchsiz shakllari

Mustaqil bo'lmagan so'zlarning kuchsiz shakllari va ularning gaplarda qo'llanishi.

## **6- mavzu. Reduksiya. Reduksiya turlari**

Reduksiya haqida ma'lumot berish. Ayrim urg'usiz bo'g'inglarda reduksiyaga uchramaydigan holatlari (chet tillardan kelgan so'zlar).

## **7-mavzu. Nutqda tovush o'zgarishi. Assimilyatsiya. Akkomodatsiya**

Nutqda tovush o'zgarishlarining turlari hisoblangan Assimilyatsiya va akkomodatsiyaning xususiyatlari, sababali va talaffuzga ta'siri.

## **8- mavzu. Nutqda tovush o'zgarishi. Eliziya, aspiratsiya, dissimilyatsiya, bog'lovchi "r"**

Eliziya, aspiratsiya kabi tovush o'zgarishi xususiyatlari, nutqda tovushlarning tushib qolish, shaklini o'zgartirish qoidalari.

## **9-mavzu. Intonatsiyaning tarkibiy qismlari (pauza, ritm, ohang, temp va ohang darajasi) va funksiyasi**

Intonatsiya va uning tarkibiy qismlari hamda intonatsiyaning funksiyalari.

## **10-mavzu. Intonatsiyaning qismlari. Nutq ohanglari turlari**

Intonatsiya qismlari va ularning grafikada o'rni (pre head, head, nucleus, tail).  
Ingliz tilidagi asosiy 4 turdagi ohang va ularning tasnifi. Past pasayuvchi va past ko'tariluvchi, baland pasayuvchi va baland ko'tariluvchi ohanglar.

## **11-mavzu. Gap urg'usi. Yordamchi so'zlarning urg'uli holatlari**

Ingliz tilidagi mustaqil bo'lmagan so'zlarning urg'u olish holatlari.

## **12-mavzu. Gaplarning kommunikativ turlari. Darak, buyruq so'roq va his-hayajon gaplarning intonatsiyasi**

Gaplarning kommunikativ turlari: darak, his-hayajon, buyruq va so'roq gaplarning umumiy talaffuz ohangi va ularning grafik tasviri. Umumiy, maxsus so'roq gaplarning ohangi va ularning grafik tasviri.

## **13-mavzu. Murojaat, kirish so'zlari va uyshiq bo'lakli gaplar, o'rin va payt hollari, muallif so'zlari ohangi**

Murojaat, kirish so'zlari va uyshiq bo'lakli gaplar, o'rin va payt hollarining hamda muallif so'zlari ohangi va ularning grafik tasviri.

## **14-mavzu. Ingliz tiliga asoslangan talaffuz standartlari.**

BEPS - Britaniya ingliz tili talaffuz standartlari va aksenti ingliz o'z ichiga oladi. Uels ingliz tili aksenti, Shotlandiya ingliz tili aksenti va Shimoliy Irlandiya ingliz tili aksenti.

## **15 -mavzu. Angliyaning RP bo'lmagan mintaqaviy aksentlari**

Angliyaning RP bo'lmagan mintaqaviy aksentlari, Janubiy ingliz aksenti, Shimoliy va O'rta Yer aksenti, Kokni aksenti, Uels ingliz tilisi, Shotlandiya ingliz tilisi, Shimoliy Irlandiya ingliz tilisi.

## **II.2. Modul II. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

### **1-mavzu. Amaliy grammatika faniga kirish. Ot.**

"Amaliy grammatika" faniga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari hamda boshqa fanlar bilan aloqasi.

Otning asosiy belgilari; otlarning semantik klassifikatsiyasi va strukturasi ko'ra turlari; otning grammatik kategoriyalari (son, kelishik); otning gapdagi vazifalari.

### **2-mavzu. Artikllar va miqdor ko'rsatgichlar.**

Ingliz tilidagi aniq va noaniq artikllar va qo'llash qoidalari; ularning xususiyatlari va ishlatilishi.

### **3-mavzu. Olmosh.**

Ingliz tilida olmoshlarning umumiy klassifikatsiyasi; olmoshlarning leksik-grammatik turlari (kishilik, egalik, o'zlik, ko'rsatish, birgalik, so'roq olmoshlari)

### **4-mavzu. Sifat va ravish.**

Ingliz tilida sifatning strukturasi ko'ra turlari; sifat darajalari; otlashgan sifatlar; sifatning gapdagi vazifasi; ravishning strukturasi ko'ra turlari; ravishlarning ma'nosiga ko'ra turlari; ravish darajalari; ravishlarning gapdagi o'rni.

#### **5-mavzu. Fe'l.**

Fe'lning aniq va noaniq formalari; fe'llarning asosiy formalari; to'g'ri va noto'g'ri fe'llar; o'timli va o'timsiz fe'llar; fe'l strukturasi; fe'llarning grammatik kategoriyalari.

#### **6-mavzu. Modal fe'llar.**

Modal fe'llar va ularning ekvivalentlari (can, may, might, must, need, ought, should, to be able to, to have to) va ularning ishlatilishi; modal so'zlar.

#### **7- mavzu. Fe'lning shaxssiz formalari.**

Infinitiv, sifatdosh, gerundiy; fe'lning shaxssiz shakllarining ishlatilishi.

#### **8-mavzu. Hosirgi zamon**

Fe'lning hozirgi zamon kategoriyasi; umumiy aspectdgi hozirgi zamon; hozirgi zamon davomli aspect; umumiy aspectdgi hozirgi zamon perfekti; davomli aspectdgi hozirgi zamon perfekti.

#### **9- mavzu. Kelasi zamon**

Fe'lning kelasi zamon kategoriyasi; umumiy aspectdgi kelasi zamon; kelasi zamon davomli aspect; umumiy aspectdgi kelasi zamon perfekti; davomli aspectdgi kelasi zamon perfekti.

#### **10-mavzu. O'tgan zamon.**

Fe'lning o'tgan zamon kategoriyasi; umumiy aspectdgi o'tgan zamon; o'tgan zamon davomli aspect; umumiy aspectdgi o'tgan zamon perfekti; davomli aspectdgi o'tgan zamon perfekti.

#### **11-mavzu. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.**

Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar va ularning ishlatilishi; buyruq va iltimos ma'nolarini bildirgan gaplarni o'zlashtirma gap sostavida berilishi; so'roq gaplarning o'zlashtirma gaplarda o'zgarishi.

#### **12-mavzu. Shart ergash gaplar.**

Ingliz tilidagi shart ergash gaplarning turlari va ularning ishlatilishi.

#### **13-mavzu. Sintaksis. Gap bo'laklari.**

Gapning bosh bo'laklari: gapning ikkinchi darajali bo'laklari.

#### **14-mavzu. Nisbat kategoriyasi. Majhul nisbat.**

Aniq va majhul nisbat; majhul nisbatning ishlatilishi; majhul nisbat ma'nosini ifodalovchi konstruksiyalar

#### **15-mavzu. Ergashgan qo'shma gaplar.**

Ega ergash gap; predikativ ergash gap; aniqlovchi ergash gap; to'ldiruvchi ergash gap; hol ergash gapli qo'shma gap.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'ylcha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Modul I.

1. Nutq tovushlarining hosil bo'lishi va nutq organlari.
2. Undosh tovushlarning xususiyati va ularni klassifikatsiya qilish tamoyillari.
3. Unli tovushlarning xususiyati va ularni klassifikatsiya qilish tamoyillari.
4. Urg'u. So'z urg'usi, jumla urg'usi va mantiq urg'usi haqida.
5. Reduksiya.
6. Reduksiya turlari.
7. Nutqda tovush o'zgarishi. Assimilyatsiya, aspiratsiya, dissimilyatsiya, akkomodatsiya.
8. Nutqda tovush o'zgarishi. Eliziya, bog'lovchi "r".
9. Intonatsiyaning tarkibiy qismlari (pauza, ritm, ohang, temp va ohang darajasi) va funksiyasi.
10. Intonatsiyaning qismlari. Nutq ohanglari turlari.
11. Gaplarning kommunikativ turlari. Darak, his-hayajon, buyruq va so'roq gaplarning intonatsiyasi.
12. Umumiy, maxsus, tanlov va tasdiq so'roq gaplarning ohangi.
13. Murojaat, kirish so'zlari, uyshiq bo'laklar, o'rin va payt hollarining ohangi.
14. Muallif so'zlari, salomlashish va "there is", "there are" konstruksiyasi ohangi.
15. Suhbatni boshqarishda intonatsiya.

## Modul II.

- 1-mavzu. Ot.
- 2-mavzu. Artikllar va miqdor ko'rsatgichlar.
- 3-mavzu. Olmosh.
- 4-mavzu. Sifat va ravish
- 5-mavzu. Fe'l.
- 6-mavzu. Modal fe'llar.
- 7- mavzu. Fe'lining shaxssiz formalari.
- 8-mavzu. Hosirgi zamon.
- 9- mavzu. Kelasi zamon.
- 10-mavzu. O'tgan zamon.
- 11-mavzu. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.
- 12-mavzu. Shart ergash gaplar.
- 13-mavzu. Sintaksis. Gap bo'laklari.
- 14-mavzu. Nisbat kategoriyasi. Majhul nisbat.
- 15-mavzu. Ergashgan qo'shma gaplar.

### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular topshiriqlar:

#### Modul I.

1. Introduction to Communicative – normative phonetics
2. The differences between English letters and sounds
3. The organs of speech. Sound formation
4. Reading rules of English consonants
5. Reading rules of English vowels
6. The aspects of connected speech
7. Types of assimilation
8. Reduction and its types
9. Intrusion
10. Linking "r"
11. Communicative types of sentences and their intonation
12. Types of intonation and their usage
13. Intonation of greetings
14. Intonation of adverbials
15. Sequence of tones

#### Modul II.

1. Common and proper nouns
2. Nouns: singular, plural. Collective nouns



3. Articles. Determiners
4. Adjectives and adverbs.
5. Pronouns
6. Verbs. Transitive and intransitive verbs
7. Numerals
8. Word order. Subject – verb agreement. 18. Inversion
9. Prepositions. Preposition of time. Preposition of place.
10. Types of questions
11. The Primary parts of the sentence. Subject. Predicate.
12. The Secondary parts of the sentence. Object. Attribute. Adverbial modifier.
13. Conditionals: zero, first, second, third conditional
14. Discourse markers.
15. Complex sentences

#### **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- o'rganilayotgan asosiy chet tilini Umum Yevropa standartlariga ko'ra C1 darajada o'rganishi;
- o'rganilayotgan chet tilida gapirish va eshitish ko'nikmalarini turli strategiyalarni qo'llay olish orqali egallashl;
- o'z fikr va mulohazalarini lingvistik kurs mavzularidan kelib chiqqan holda og'zaki ravishda aniq va mantiqiy bayon etishni;
- matnni tushunish maqsadida turli strategiyalarni bilishi va ulardan foydalana olish borasida yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

#### **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**

- interfaol keys-stadilar;
- mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

#### **VII. Kreditlarni olish uchun talablar**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.

### **VIII. Asosiy adabiyotlar**

1. Mark Hancock, English Pronunciation in Use. Cambridge University press, 2003
2. Mardonova R., Turaeva G. Communicative phonetics. TerDU nashr- matbaa markazi nashriyoti, 2023.
3. Iriskulov M.T., Shatunova S. Practical English phonetics achievement tests.- T.: 2007
4. Martin Parrott. Grammar for English language teachers. Cambridge University press, 2000.
5. Mark Nettle and Diana Hopkins. Developing Grammar in Context. Cambridge University press, 2012.




### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Абдуазизов А. А. English Phonetics. A Theoretical course —Т., 2007
2. Соколова М. А. Практическая фонетика английского языка—М., 2008.
3. Bowler B., Cunningham S. New Headway pronunciation course. Oxford University Press, 1999.
4. Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles. Destination. Grammar and Vocabulary with Answer Keys. Macmillan, 2013 (full set).
5. Ronald Carter, Rebecca Hughes, Michael McCarthy. Exploring Grammar in Context. Cambridge University press, 2000.
6. Kaushanskaya V.L. and others. A Grammar of the English language. Moscow.2008.

### **Axborot manbalari**

1. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. <http://www.britishcouncil.org>
4. <http://www.bbc.co.uk>
5. <http://encyclopedia.farlex.com>
6. <http://en.wikipedia.org>
7. [www.tersu.uz](http://www.tersu.uz)

Fan dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil  
\_\_\_\_\_gi - sonli bayonnomasi bilan maqullangan.

<b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b>	
G. X. To'rayeva	 TerDU, "Ingliz tili o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi
R.O. Mardonova	 TerDU, "Ingliz tili o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi
M.F. Tadjiyeva	 TerDU, "Ingliz tili o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Kafedra mudiri -	E.M. Davlyatova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
<b>Taqrizchi:</b>	
O. P. Uralova	- Termiz pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
O'. Xudoynazarova	- Termiz davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).